

O'ZBEKISTONDA

FANLARARO INNOVATSIYALAR

VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI

2024

20-Mart

ISSN: 2181-3302

6.618

2024 Impact Factor

Exact

Natural

Medical

Technical

Economics

Philological

Pedagogical

Social sciences  
and humanities





|     |                                                                                                                                                                                                                      |     |
|-----|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
|     | <b>Алмаматов Мансурбек Бўрибой ўғли</b><br><i>ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ОМБУДСМАН. ТАРИХИ ВА БУГУНИ.</i>                                                                                                             |     |
| 22. | <b>Кимсанов Иброхим Хайитмуродович</b><br><b>Жўраев Алижон Абдуғаниевич</b><br><b>Абдукодиров Хайрулло</b><br><i>ФАРҒОНА ВИЛОЯТИ СУҒОРИЛАДИГАН ТУПРОҚЛАРИНИ БАҲОЛАШ (ДАНҒАРА ТУМАНИ МИСОЛИДА)</i>                    | 114 |
| 23. | <b>Burkhanova Mashxura Mukhammadovna</b><br><i>IMPORTANCE OF VERBAL AND NON-VERBAL MEANS OF COMMUNICATION</i>                                                                                                        | 119 |
| 24. | <b>Nasirov Ilxam Zakirovich</b><br><b>Raxmatullayev Sardorbek Baxodirjon o'g'li</b><br><i>AVTOBUSLARDA YO'LOVCHILARNI XAVFSIZ TASHISHNI TASHKIL ETISHDA EKPLUATATSION VA EKOLOGIK KO'RSATKICHLARNI HISOBGA OLISH</i> | 122 |
| 25. | <b>Насиров Илхам Закирович</b><br><b>Рахмонов Хуршидбек Нурмухаммад ўғли</b><br><i>АВТОМОБИЛЛАРДА МЕТАН ГАЗИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ</i>                                                                      | 127 |
| 26. | <b>Sotvoldiyeva Nasibaxon Sohibjamol qizi</b><br><b>Mamajonova Muxlisaxon O'ktamjon qizi</b><br><i>YENGIL SANOAT SOXASIDA QABUL QILINGAN XALQARO STANDARTLAR AHAMYATI</i>                                            | 133 |
| 27. | <b>Hakimov Baxtiyor Muzaffar o'g'li</b><br><i>KOMPYUTER GRAFIKASIDAGI RASTR, VEKTOR VA FRAKTAL GRAFIKALARNING OZARO FARQLARI</i>                                                                                     | 140 |
| 28. | <b>Yo'ldoshaliyeva Dilrabo Xasanboy qizi</b><br><i>SUDLOVNI AMALGA OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKTUALDAN FOYDALANISH</i>                                                                                                 | 148 |
| 29. | <b>Dadayev.S.</b><br><b>Xujanazarova Yulduz Kamoliddin qizi</b><br><i>O'ZBEKISTON TABIATIDA UCHRAYDIGAN ILONLARNING TUR TARKIBI VA HAYOT TARZI</i>                                                                   | 153 |





## YENGIL SANOAT SOXASIDA QABUL QILINGAN XALQARO STANDARTLAR AHAMYATI

**Sotvoldiyeva Nasibaxon Sohibjamol qizi**

*Andijon mashinasozlik instituti MSMSM kafedrası o'qituvchisi*

**Mamajonova Muxlisaxon O'ktamjon qizi**

*Andijon mashinasozlik instituti MSMSM kafedrası 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya** *Ushbu maqolada yengil sanoat soxasida qabul qilingan xalqaro standartlar ahamyati, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, yengil sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish va O'zbekiston Respublikasida "O'zstandart" agentligi normativ xujjatlari statistikasi haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Yengil sanoat, xalqaro standart, "O'zstandart" agentligi, modernizatsiya, muvofiqlik sertifikat.*

### KIRISH

Bugungi kunda jahon taraqqiyotining dunyoviy muammolarini hal qilishning asosiy unsurlaridan biri sifatida standartlashtirishning roli oshib bormoqda. Yagona standartlarning shakllanishi xavfsizlikni ta'minlash darajasi, ishlab chiqarish jarayonlari va energetik samaradorligini oshiruvchi havf xatarni baholash, shuningdek atrof-muhitni himoya qilish texnologiyalarining faol tarqalishiga yordam beradi. Shu munosabat bilan aytish mumkinki, standartlar – takomillashtirishning muhim qurolidir.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur maqolani yoritish jarayonida SH.M. Mirziyoyevning asarlari metodologik manba sifatida belgilandi. Ushbu maqolada ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik, obyektivlik usulidan foydalanilgan bo'lib, mavzuni yoritishda tavsifiy, qiyosiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida xalqaro standartlar bilan qishloq xo'jaligiga oid standartlarni uyg'unlashtirish orqali ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish masalasi obyektiv tahlil qilib o'tildi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR


YENGIL SANOAT — xilma-xil xom ashyodan keng iste'mol mahsulotlari va buyumlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sanoat tarmoqlari majmui. Yengil sanoatda xom ashyoga ham dastlabki ishlov berish, ham tayyor mahsulot ishlab chiqarish amalga oshiriladi. Yengil sanoatda paxta, ipak, zigir, kanop, jut tolalari, hayvonlar terisi, juni, sun'iy tolalar, sun'iy charm xom ashyo sifatida foydalaniladi. Uning asosiy tarmoqlari to'qimachilik, tikuvchilik, ko'nchilik, mo'ynado'zlik, poyabzal sanoatlari hisoblanadi.

Xalqaro standartlarni qo'llash va rivojlangan davlatlar milliy standartlaridan foydalanish mamlakatimizda standartlashtirish sohasida ustivor yo'nalishlardan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Standartlashtirish to'g'risida"gi Qonunning





6- moddasiga muvofiq va texnologiya va uskunalar texnik darajasini hisobga olgan holda standartlardan yanada samarali foydalanish uchun "O'zstandart" agentligi normativ xujjatlar fondida bugungi kunda 44000dan ko'proq me'yoriy xujjatlar jamlangan. Ularning 8116 xalqaro standartlar, 20393 davlatlararo standartlar, 8679 xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari, 1679 O'zbekiston Respublikasi davlat standartlari, 168 tarmoq standartlar, 4692 texnik shartlar, 334 korxona standartlari, 198 rahbariy xujjatlari tashkil qiladi (1-rasm).



**1-rasm.** Me'yoriy xujjatlarning toifalari bo'yicha taqsimlanishi

Shuningdek bizning mamalakatimizda ham yengil sanoat bo'yicha bir qancha ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, nafaqat paxta tolasi, balki tayyor to'qimachilik mahsulotlari yetkazish bo'yicha ham dunyoda yetakchi davlatlardan biriga aylandi. Masalan, 1991-yilda paxta tolasini qayta ishlash hajmi 7 foizdan oshmagan bo'lsa, ayni paytda bu ko'rsatkich 44 foizga yetdi. Mahsulot eksporti hajmi 130 barobar o'sib, joriy yil yakuni bo'yicha 1 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Vaholanki, 1991-yilda bu ko'rsatkich 7 million dollar bo'lgan.

Prezident 11 mingga milliy standart o'rniga xalqaro standartlarni qabul qilish hamda 2023 yildan barcha korxonalarni ushbu standartlarga o'tkazish bo'yicha ko'rsatma berdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 17 may kuni texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlash va metrologiya milliy tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizda sanoatni rivojlantirish, mahsulotlar sifatini oshirish, jahon bozorlariga chiqish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Xususan, yurtimizda mavjud 30 mingga yaqin standartning 19 mingtasi xalqaro normalar bilan uyg'unlashtirildi va xalqaro standartlar reyestri shakllantirildi. Eskirgan, bozor iqtisodiyoti mexanizmlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan 5 ming 600 ta standart amaliyotdan chiqarildi, 3 ming 500 tasi zamon talablari asosida takomillashtirildi. Xalqaro analoglarga muvofiq qo'shimcha 26 ta texnik reglament ishlab chiqildi.



Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi 260 ta korxonada "Global G.A.P." hamda "Organic" standartlari asosida sifat tizimi joriy etildi va ular xalqaro darajada sertifikatlashtirildi. 32 ta to'qimachilik korxonasi "Oeko-Tex" standarti asosida sertifikatlashtirildi. 21 ta korxona Yevropa Ittifoqida talab etiladigan "SE" markirovkasini tasdiqlovchi sertifikat oldi. Sinov laboratoriyalari modernizatsiya qilinib, yurtimizga chet ellardan keltirilayotgan mahsulotlar sifati ham o'rganib borilmoqda.

Shu bilan birga, ishlab chiqarishda, eksport va import jarayonlarida standartlar bilan bog'liq yana ko'plab vazifalar bor. Ayrim tartib-taomillar tadbirkorlarga qiyinchilik tug'dirmoqda. Taqdimotda shu masalalarni hal etish, sohadagi tartiblarni takomillashtirish bo'yicha takliflar muhokama qilindi. Masalan, bugungi kunda 3 ming 400 turdagi mahsulotga sanitariya-epidemiologik xulosa bilan birga muvofiqlik sertifikati ham talab etilmoqda. Davlatimiz rahbari mutasaddilarga sanitariya-epidemiologik xulosa olinadigan mahsulotlar ro'yxatini maqbullashtirish, qo'shimcha muvofiqlik sertifikati talabini bekor qilish masalasini ko'rib chiqish bo'yicha topshiriq berdi. Import mahsulotlar sinovi bojxona rasmiylashtiruvi jarayonida amalga oshirilib, bunga 60 kungacha vaqt ketmoqda. Shu bois, bu boradagi hujjatlarni kamida 30 kun oldin bojxona elektron dasturiga joylashtirish tizimini yo'lga qo'yish vazifasi belgilandi. Sohani takomillashtirishda jahon tajribasidan foydalanilmoqda.

Jumladan, Yevropada faqatgina 28 turdagi xavfi yuqori bo'lgan mahsulot majburiy sertifikatlanadi, qolgan barcha turdagi tovarlar muvofiqligi deklaratsiyalash orqali tasdiqlanadi. Taqdimotda shunday tizimni tajriba-sinov tariqasida amaliyotga kiritish zarurligi qayd etildi. Dastlabki bosqichda 800 ga yaqin mahsulot turi bo'yicha deklaratsiyalash tartibi joriy etiladi. Xalqaro talablar bilan uyg'unlashmagan qolgan 11 mingta milliy standart o'rniga xalqaro standartlarni qabul qilish hamda 2023 yildan barcha korxonalarni ushbu standartlarga o'tkazish bo'yicha ko'rsatma berildi. "O'zstandart" agentligi tizimidagi 20 ta sinov laboratoriyasi faoliyatini xalqaro darajada tashkil etib, birinchi navbatda oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi, elektr texnikasi, yengil sanoat, gigiyena va parfyumeriya mahsulotlari hamda qurilish materiallarining xalqaro standartlarga muvofiqligini baholashni yo'lga qo'yish muhimligi ta'kidlandi.

Yevropa Ittifoqining "GSP+" tizimi doirasidagi imtiyozlardan keng foydalanish uchun korxonalarga xalqaro sertifikatlar olishda ko'maklashish kerakligi qayd etildi. Jahon savdo tashkilotining Savdodagi texnik to'siqlar hamda Sanitariya va fitosanitariya choralari to'g'risidagi bitimlari normalaridan kelib chiqib, ushbu sohalarga mas'ul idoralarning vakolatlarini aniq belgilash vazifasi qo'yildi.

Avvalo "GSP" tizimi haqida qisqacha to'xtalib o'tsak. Preferensiyalarning bosh tizimi "GSP+" rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlar bozorlariga eksport qilinadigan tovarlarga bojxona tariflaridan imtiyozlar berish tizimi hisoblanib, deyarli barcha turdagi sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qamrab oladi. Xususan, bu turdagi tizim, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo mamlakatlar, xususan, AQSh, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Kanada, Avstraliya,



Shveysariya kabi davlatlar tomonidan taqdim etiladi. Xorijiy mamlakatlarga "GSP" doirasidagi imtiyozlarni taqdim etish jarayoni Yevropa parlamenti va Yevropa Ittifoqi Kengashining maxsus reglamenti talablariga asosan tartibga solinadi. Ushbu reglament talablariga asosan, "GSP+" tizimi doirasidagi imtiyozlarni qo'lga kiritish bir nechta shartlar asosida amalga oshirilib, asosiy shartlardan biri bu mamlakat tomonidan 27 ta (7 ta - inson huquqlari, 8 ta - mehnat standartlari, 8 ta - atrof-muhitni muhofaza qilish, 4 ta - samarali davlat boshvaruvi sohasida) xalqaro konvensiyalarni ratifikatsiya qilish va uning doirasidagi majburiyatlarni samarali bajarish hisoblanadi. "GSP" reglamenti "GSP+" oluvchilarining majburiyatlarini doimiy kuzatib borishni nazarda tutadi.

Shuningdek, Yevropa Ittifoqi tomonidan o'rnatilgan tartibga ko'ra, mamlakat tomonidan mazkur tizim doirasidagi imtiyozlarni olish bo'yicha rasmiy ariza yuqorida sanab o'tilgan xalqaro konvensiyalar to'laqonli ratifikatsiya qilingandan so'ng taqdim etilishi mumkinligi belgilangan. *Evropa Ittifoqining reglamentiga asosan, rasmiy ariza qabul qilingan kundan boshlab, Yevropa Komissiyasi tomonidan BMT va XMT idoralari va qo'mitalarining tegishli hisobotlari tahlil asosida 6 oy davomida ko'rib chiqiladi. Ushbu ko'rib chiqish jarayonida ijobiy xulosa qabul qilingan taqdirda, Yevropa Komissiyasining mamlakatga "GSP+" tizimi benefitsiari maqomini taqdim etish to'g'risidagi qarori Yevropa parlamenti va kengashiga 4 oy mobaynida yakuniy qarorni qabul qilish uchun kiritiladi.*

2020 yil 30 noyabr kuni Yevropa komissiyasi O'zbekistonga preferensiyalar bosh tizimi ("GSP+") bo'yicha benefitsiar mamlakat maqomini berish bo'yicha ijobiy xulosa qabul qildi va shu vaqtdan boshlab Yevropa parlamenti va kengashi tomonidan ushbu masalani ko'rib chiqish jarayoni boshlandi. Yevropa tomonining O'zbekistonga mazkur maqomni taqdim etish to'g'risidagi normativ hujjati 9 aprel kuni Yevropa Ittifoqi Komissiyasi va partamenti tomonidan respublikaning rasmiy arizasi va mamlakatda olib borilayotgan davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyatining kuchli institutlariga ega demokratik davlatni shakllantirishga qaratilgan, amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar to'g'risidagi ma'lumotini ko'rib chiqish natijalari asosida qabul qilindi.

Mazkur normativ hujjatga asosan, joriy yil 10 aprel kunidan boshlab O'zbekiston uchun Yevropa Ittifoqining barqaror rivojlanish va samarali boshqaruv bo'yicha maxsus preferensiyalar tizimi ("GSP+") kuchga kirdi. O'zbekiston mazkur tizimga Preferensiyalar bosh tizimi ("GSP") doirasida benefitsiar mamlakat sifatida qabul qilindi va mazkur tizim doirasida imtiyozlar taqdim etilgan 9-mamlakat hisoblanadi.

Ta'kidlash joiz, Yevropa Ittifoqining respublikaga "GSP+" benefitsiar mamlakat maqomini berish to'g'risidagi qarori mamlakatda ushbu sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarning xalqaro e'tirofi sifatida qabul qilish o'rinli hisoblanadi. Shuningdek, ushbu jarayon Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarda muhim bosqich bo'lib, tomonlar o'rtasidagi muloqotni hamda savdo almashinuvini yanada chuqurlashtirishga imkon beradi. O'zbekiston "GSP+" tizimi benefitsiar



mamlakati maqomini olishga qadar, Preferensiyalar bosh tizimi ("GSP") doirasidagi imtiyozlardan foydalanib kelgan. Ushbu imtiyozlar doirasida mamlakat bojlarisiz 3000 ta, pasaytirilgan bojxona boji stavkalari asosida 3200 ta tovar pozitsiyalarini Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar bozorlariga eksport qilish imkoniyatiga ega bo'lgan.

O'zbekistonda "GSP" doirasidagi imtiyozlardan foydalanish darajasi hozirgi kunda 87% tashkil qiladi. Qisqartirilgan imtiyozlardan foydalanayotgan mahsulot segmentlari asosan to'qimachilik va kiyim-kechak, plastmassa mahsulotlari, shuningdek, mevalar, yong'oq va sabzavotlardir. Bu mamlakat eksport tarkibining Markaziy Osiyodagi qo'shni davlatlarga qaraganda ancha xilma-xil ekanligini ko'rsatadi.

Ayni vaqtda, respublikaga taqdim etilgan Yevropa Ittifoqining barqaror rivojlanish va samarali boshqaruv bo'yicha maxsus preferensiyalar tizimi ("GSP+") imtiyozlari doirasida esa O'zbekiston yevropa bozoriga 6200 dan ortiq tovar pozitsiyalarini bojxona bojlarisiz eksport qilish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Xususan, ushbu tovar pozitsiyalari qatorida respublikaning asosiy eksport salohiyatiga ega bo'lgan keng turdagi tekstil mahsulotlari, oyoq qiyim, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, transport vositalari, mineral o'g'itlar, neft va kimyo sanoati mahsulotlari, qurilish materiallari, keramika va metall mahsulotlari hamda texnologik uskunalar bojxona boji to'lashdan ozod etilgan. Shu o'rinda, ta'kidlash joiz, Yevropa Ittifoqining 27 a'zo mamlakatlari tomonidan "GSP+" tizimi doirasidagi imtiyozlarning qo'llanishi ularning o'zbek mahsulotlarining yevropa bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlagan holda ularning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshishiga xizmat qiladi.

O'z navbatida, bunga O'zbekiston Respublikasi Davlat rahbari tomonidan 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi davomida "GSP+" tizimi imtiyozlaridan foydalanish birgina to'qimachilik mahsulotlarining yillik eksportini 300 mln. dollarga oshirish uchun sharoit yaratishi ta'kidlanganligi yaqqol isbot bo'la oladi.

Shu munosabat bilan, respublikada "GSP+" tizimi doirasidagi imtiyozlarni samarali qo'llash bo'yicha tizimli ishlarni olib borish maqsadida, bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

1. Yuqorida ta'kidlanganidek, "GSP+" tizimiga qo'shilayotganda mamlakat inson va mehnat huquqlariga, atrof-muhit va iqlim muhofazasi va sifatli davlat boshqaruvga oid 27 ta asosiy xalqaro konvensiyalarni samarali amalga oshirish majburiyatini oladi va bu jarayon ustidan doimiy ravishda Yevropa Ittifoqi Komissiyasi tomonidan monitoring ishlari olib boriladi.

Shu sababli, respublika tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro konvensiyalar doirasida qabul qilingan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashni doimiy monitoring qilish bo'yicha maxsus Hukumat komissiyasi tuzilmoqda.

Shuningdek, mazkur Hukumat komissiyasi faoliyati doirasida yuqorida qayd etilgan xalqaro konvensiyalar bo'yicha hisobotlarning o'z vaqtida yevropa tomoniga taqdim etilishini ta'minlash uchun xalqaro tashkilotlar, jumladan, Birlashgan Millatlar



Tashkiloti va Xalqaro Mehnat Tashkilotining tegishli idoralari va qo'mitalari bilan faol hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan.

2. Respublikada "GSP+" tizimi doirasidagi imtiyozlarni samarali qo'llash va benefitsiar mamlakat maqomini doimiy saqlab qolinishini ta'minlash maqsadida, ushbu jarayonga Yevropa Ittifoqining xalqaro ekspert va konsultantlarini jalb etish va ular ishtirokida seminarlar tashkil etish rejalashtirilgan.

3. Mahalliy eksport qiluvchi korxonalar vakillari bilan "GSP+" tizimi doirasidagi imtiyozlarni samarali qo'llash orqali Yevropa Ittifoqi bozoriga kirib borish yuzasidan informatsion materiallar tayyorlagan holda tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

4. Yevropa bozoriga mahalliy mahsulotlarni eksport qilishda ushbu mahsulotlarning Yevropa Ittifoqi tomonidan o'rnatilgan texnik, sanitar, fitosanitar talablarga va standartlarga muvofiqligini ta'minlash talab etiladi.

Shu munosabat bilan, Yevropa Ittifoqining mazkur talablarini o'rgangan holda eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarini yanada takomillashtirish va ushbu sohalaridagi milliy qonunchilikdagi normalar va standartlarni ular bilan muvofiqlashtirish ishlari olib borilmoqda.

Tahlil natijalariga ko'ra, hozirgi kunda, Yevropa Ittifoqida yevropa bozoriga kirib keladigan 30 tadan ortiq mahsulot turlariga nisbatan texnik tartibga solish va tovarlarni markirovkalash tartiblarini ko'zda tutuvchi uyg'unlashgan standartlar (direktivalar) ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan.

5. Respublikada yangi turdagi, yevropa bozorida yuqori talabga ega bo'lgan mahsulot turlarini ishlab chiqarish quvvatlarini yanada kengaytirish va ularning kelgusidagi Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar bozorlariga yetkazib berishni yo'lga qo'yish maqsadida, Yevropa Ittifoqining yirik biznes uyushmalari va moliyaviy institutlari bilan investitsion hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

### **XULOSA**

Xalqaro standartlar bilan yengil sanoat soxasiga oid standartlarni uyg'unlashtirish orqali ishlab chiqarishni joriy etilishi sifat sohasidagi maqsadlarning bajarilishiga, auditlar natijasida nomuvofiqliklar sonining kamayishiga, potensial muammolarni bartaraf etish bo'yicha oldini oluvchi amallarning to'g'rilovchi amallarga nisbatini, mahsulot rentabelligining oshishiga, iste'molchilar qanoatlanganligining oshishiga, shuningdek yengil sanoat samaradorligining oshishiga olib keladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Review.uz
2. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov, "Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari", O'zbekiston: Toshkent, 2009y., 486 b.